**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, Usmonov Murodjon Dusmurot o'g'li**

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........ 583
**Mirzayev Qulmamat DJonuzoqovich, Mirzayev Azzamjon Jonuzokovich, Eshquvvatova Nodira Abdullayevna**

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI ........ 588
**Mirzayev Qulmamat Djonuzoqovich, Eshquvvatova Nodira Abdullayevna**

СТРАТЕГИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНА: РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО КАПИТАЛА В ЭПОХУ НООНОМИКИ ........ 593
**Чекулаева Кристина**

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ ........ 599
**Чекулаева Кристина**

YASHIL IQTISODIYOT – MAMLAKAT TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI ........ 605
**Oybek Hamdamov, Qosimov Jahongir**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALI SIFATINI OSHIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI ........ 608
**M.Ostanova, Ro'ziyev Ramshid**

MODERN LEGAL BASIS FOR THE EFFICIENT USE OF FINANCIAL RESOURCES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN OUR COUNTRY ........ 613
**Ismoilova Gulrux, Khayriddinov Shukhrat Botirovich**

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA TABIIY - IQTISODIY MANBAALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY MEXANIZMI ........ 617
**Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li, Mavlonova Surayyo Xasan qizi**

YANGI O'ZBEKISTONDA SOHALARNI RAQAMLASHTIRISH SAMARADORLIGI ........ 621
**Gulrux Arslon qizi Ismoilova**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# ORGANIK QISHLOQ XO‘JALIGIDA “IXTISOSLASHTIRILGAN AGROKOOPERATIV” TASHKIL ETISH ORQALI TA’MINOT ZANJIRI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH

**Amirqulov Shuxrat Olimovich**
Qarshi davlat texnika universiteti
“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti,
i.f.f.d. (PhD)
E-pochta: amirqulovshuxrat01@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-7011-9751

Annotatsiya: Maqolada organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini iste’molchilarga yetkazib berishda ta’minot zanjiri ishtirokchilarini samarali boshqarishni takomillashtirish maqsadida “ixtisoslashtirilgan agrokooperativ” tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: organik, ekotizim, biologik faollik, atrof-muhit, agrobiznes, agrokooperativ, logistika, logistik tizim, an’anaviy yondashuv, an’anaviy logistik yondashuv, integratsion yondashuv, kooperatsiya, optimal xarajat, yashil texnologiya.

Abstract: The article scientifically substantiates the socio-economic significance of establishing a "specialized agricultural cooperative" to improve the effective management of supply chain participants in the delivery of organic agricultural products to consumers.

Key words: organic, ecosystem, biological activity, environment, agribusiness, agrocooperative, logistics, logistics system, traditional approach, traditional logistics approach, integrated approach, cooperation, optimal cost, green technology.

Аннотация: В статье научно обоснована социально-экономическая значимость создания «специализированного аграрного кооператива» с целью повышения эффективности управления участниками цепочек поставок органической сельскохозяйственной продукции потребителям.

Ключевые слова: органический, экосистема, биологическая активность, окружающая среда, агробизнес, агрокооператив, логистика, логистическая система, традиционный подход, традиционный логистический подход, интеграционный подход, кооперация, оптимальные затраты, зеленые технологии.

## KIRISH

Jahon okeanining mashhur tadqiqotchisi Jak Iv Kusto ta’kidlaganidek, ilgari tabiat insonga tahdid solgan bo‘lsa, endilikda inson tabiatga jiddiy tahdid solmoqda. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi faoliyati atrof-muhitning barcha ifloslanishining uchdan bir qismini tashkil etmoqda. Taraqqiyotning jadallashuvi natijasida inson faoliyatining ekologik izlari tabiat uchun tobora xavfli oqibatlarni – xususan, qishloq xo‘jaligi yerlarining degradatsiyasi, cho‘llanish, botqoqlanish, issiqxona effekti va chiqindilar miqdorining ortishi kabi salbiy holatlarni yuzaga keltirmoqda.

Suv va havoning ifloslanishi, tuproqning degradatsiyaga uchrashi, cho'llanish, ekotizimlar hamda biologik xilma-xillikning yo'qolib borishi global miqyosda kuchayib bormoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi agrifilyatsiya (agfiltratsiya) jarayonlarini keltirib chiqarmoqda va ayni paytda dunyo bo'yicha har beshinchi kishi ochlikdan aziyat chekmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarida kimyoviy moddalar, antibiotiklar, o'sish gormonlari va sun'iy qo'shimchalar mavjudligi natijasida ushbu mahsulotlarning sifati yomonlashmoqda. Bu holat inson salomatligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Jumladan, saraton, bepushtlik, astma, semizlik, qandli diabet, allergiyalar, jigar, oshqozon, buyrak va o't pufagi bilan bog'liq kasalliklar ko'paymoqda va yoshlar orasida keng tarqalmoqda.

Shu sababli ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talab sezilarli darajada ortib bormoqda.

Organik qishloq xo'jaligi esa ekotizimlarni va biologik xilma-xillikni asrashga yo'naltirilgan bo'lib, u biologik tsikllar hamda tuproqning biologik faolligini rag'batlantiradigan va mustahkamlovchi, shuningdek, barqaror qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ta'minlovchi boshqaruv tizimlaridan biridir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Organik qishloq xo'jaligi tabiatni muhofaza qilish asosida an'anaviy va zamonaviy usullarni uyg'unlashtiradi. O'tgan asrning o'rtalarida kibernetika va sun'iy intellekt nazariyasining asoschilaridan biri Norbert Viner quyidagicha ta'kidlagan edi: "Biz o'z muhitimizni shu qadar tubdan o'zgartirdikki, endi unda mavjud bo'lish uchun o'zimizni o'zgartirishimiz kerak" [1].

T. A. Svechnikovaning fikriga ko'ra, "Organik qishloq xo'jaligi – nafaqat 'toza' mahsulot ishlab chiqarish jarayoni, balki tabiiy uyg'unlik va inson salomatligini saqlash maqsadida atrof-muhitni boshqarish tizimiga muvofiq, ma'lum bir hududning tabiiy-iqlim sharoitiga moslashgan iqtisodiy boshqaruv tizimidir" [2].

Organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish alohida bir korxonaning vazifasi emas. Shu sababli rus olimlari V. A. Kundius va O. Y. Voronkova organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun tizimlilik, hamkorlik, integratsiya va innovatsion rivojlanish nazariyasiga asoslangan kooperatsiya hamda klasterli yondashuv zarurligini alohida qayd etadilar [3].

A. V. Peshkovaning fikricha, "Organik qishloq xo'jaligi – bu ishlab chiqarishning texnologik zanjiri bo'lib, unda xomashyoni tayyorlashdan tortib, to yakuniy mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan barcha jarayonlar ekologik standartlarga to'liq mos kelishi lozim" [4].

M. X. Saidov, N. A. Ashurmetova va G. T. Xamdamovalar esa organik ishlab chiqarish tizimining asosiy maqsadini quyidagicha izohlaydilar: "Jamiyatni xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, atrof-muhitni asrash va yaxshilash yo'lida faoliyat yuritishdan iborat" [5].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz quyidagi xulosani bildiramiz: organik qishloq xo'jaligi – bu atrof-muhitga zarar yetkazadigan kimyoviy vositalardan foydalanmasdan, biologik xilma-xillikni saqlovchi, tuproq unumdorligini oshiruvchi va inson salomatligini muhofaza qiluvchi yagona boshqaruv tizimidir. Bugungi kunda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Organik qishloq xo'jaligida "ixtisoslashtirilgan agrokooperativ" tashkil etish orqali mahsulotni yetkazib berish jarayonida ta'minot zanjiri ishtirokchilarini boshqarishni takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar – mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Xususan, ushbu yo'nalishda olib borilgan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi:

abstrakt va analitik mushohada yuritish;

normativ yondashuv;

pozitiv tahlil;

qiyosiy tahlil.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda dunyoning aksariyat mamlakatlarida agrobiznes sohasida logistikadan faol foydalanish hamda ta'minot zanjiri boshqaruvini takomillashtirish masalalariga ustuvor e'tibor qaratilmoqda. Biroq, O'zbekistonning mahalliy qishloq xo'jaligi sektori, ayniqsa agrologistika va organik mahsulotlarni yetkazib berish zanjiri yo'nalishlarida, hali ham ayrim muammolar bilan yuzlashmoqda. Agrosanoat kompleksidagi mavjud muammolarni bartaraf etishda tizimli va kompleks yondashuv zarur bo'lib, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida marketing va logistikaning ahamiyati beqiyosdir.

Agrosanoat majmuasi doirasida turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar kechmoqda va bu jarayonlar natijasida logistika sohasiga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Qishloq xo'jaligi korxonalarini agrologistik yondashuv asosida zarur resurslar bilan ta'minlash nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Logistika qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yangi yondashuv sifatida shakllanmoqda. Agrologistika esa ushbu sohada logistika tamoyil va uslublarini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan murakkab, ammo samarali jarayon hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida biznes yuritish uchun logistik yondashuvlardan uzoq yillardan beri samarali foydalanib kelinmoqda. Ammo O'zbekistonda, ayniqsa organik qishloq xo'jaligi kontekstida, agrologistika hali rivojlanishning dastlabki bosqichlarida turibdi.

Logistikaga yo'naltirilgan korxonalarni rivojlantirish jarayonida samarali boshqaruv tizimini shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Bunday boshqaruv tuzilmasi quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

mazmunli va sifatli qarorlar qabul qilish;

boshqaruv funksiyalari va vazifalarini aniq va mutanosib taqsimlash;

tashkiliy tuzilma logistika tamoyillariga asoslangan holda shakllantirilishi;

strategik maqsadlarni "klassik" logistika funksiyalari orqali amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi.

Shuningdek, qaror qabul qilish jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalariga asoslangan bo'lishi lozim. Bu metodologik asoslar bilan birga, uzoq muddatli istiqbolli rejalarni qo'llashni ham talab etadi.

Funktsional logistika yondashuvi esa korxonada rejalashtirish jarayonini maxsus logistika xizmati faoliyatidan ajratishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv quyidagi jarayonlarni qamrab oladi:

materiallar oqimini samarali boshqarish;

shartnomalarni shakllantirish;

yetkazib beruvchilar bilan munosabatlarni muvofiqlashtirish;

tayyor mahsulotni xaridorgacha yetkazib berish.

Mazkur yondashuvlar orqali qishloq xo'jaligida, ayniqsa organik mahsulot ishlab chiqarishda samaradorlik va barqarorlikka erishish mumkin.

Logistika xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: ishlab chiqarishni xomashyo bilan ta'minlash, moddiy boyliklar va transport oqimlarini boshqarish, shuningdek, logistika hamda ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish. Sifat nazorati esa ushbu xizmatning umumiy va ajralmas funksiyasi hisoblanadi.

Korxonadagi moddiy oqimlarni boshqarish faoliyati ma'lum miqdordagi xarajatlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu holat uning muhim jihatlaridan biridir. Logistika xizmatining samarali faoliyati uchun korxonaning mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib, zaxiralarning maqbul hajmini aniq belgilash zarur.

Shuningdek, logistika xizmatlari doirasida quyidagi xarajatlar va ehtiyojlar yuzaga chiqadi:

nazorat va boshqaruv xarajatlari;

tashish va saqlash bilan bog'liq xarajatlar;

xaridlar uchun texnologiya va uskunalar;

moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash.




1-rasm. Agrologistika menejmentining tarkibi va o'zaro aloqadorligi[1]

Logistika xizmatini agrosanoat majmuasi korxonalar tarkibiga joriy etish buyurtmalarni samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan barcha funktsiyalarni yagona markazlashtirilgan boshqariladigan mexanizmga birlashtirishga imkon beradi, bu esa har qanday murakkablikdagi muammolarni, vazifalarni mas'uliyatli, uyg'un va professional tarzda bajarishni hal qilish imkonini beradi.

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi korxonalarining mashina-traktor parkini bosqichma-bosqich yangilash kuzatilmoqda. Biroq, qishloq xo'jaligi korxonalari moliyaviy imkoniyatlarining cheklanganligi sababli, har doim ham zarur traktorlar, qishloq xo'jaligi mashinlari va boshqa moddiy resurslarni sotib olish imkoniyatiga ega emas. Shu boisdan qishloq xo'jaligi korxonalari ehtiyojlariga mos keladigan mashina va traktor parkini tashkil etish, zarur asbob-uskunalarni ishlab chiqarish, tashishni tashkil etishni takomillashtirish, xizmat ko'rsatishni yaxshilash, texnik vositalardan unumli foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Shu bilan birga, agrologistika uchun tegishli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ish va tashish paytida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga avtotransport xizmatlarini tashkil etish, O'zbekistonda va xorijda qishloq xo'jaligi

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

mahsulotlarini saqlash omborxonalari va qayta ishlash korxonalari, ularni yuklash-tushirish vositalari bilan taminlash zaruriyati yuzaga keladi.




2-rasm. Agrobiznesning taminot zanjiri boshqaruvida ananaviy yondashuv (ISO 9001 boyicha)

Qishloq xo‘jaligida an’anaviy yondashuv asosida mahsulot yetkazib berish tizimining ta’minot zanjiri juda sodda tuzilgan bo‘lib, bu zanjir faqat ikkita asosiy ishtirokchidan – ya’ni, ta’minotchi-tashkilot va iste’molchidan iborat ekanligini 2-rasm orqali ko‘rish mumkin.

Agrosanoat kompleksi korxonalarida transport xizmatidan foydalanish darajasi past bo‘lib, uni zamonaviy logistika tamoyillari asosida takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Bu esa o‘z navbatida, an’anaviy yondashuvdan voz kechib, transport xizmatlari modellari va transport yo‘nalishlarini optimallashtirish orqali mehnat xarajatlari, resurs xarajatlari hamda transport xarajatlarini minimallashtirishga asoslangan kompleks logistika kontsepsiyasiga o‘tishni taqozo etadi.

Logistika kontsepsiyasi ishlab chiqarish tannarxining pasayishiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu yondashuv qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yanada samarali va raqobatbardosh tarzda bozorlarga yetkazib berishga imkon yaratadi. Shu sababli, logistik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’minot tizimi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi aloqani ham mustahkamlaydi.




3-rasm. Agrobiznesning taminot zanjiri boshqaruvida ananaviy logistik yondashuv tuzilmasi[2].

Samarali agrologistika tizimi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘rim-yig‘im jarayonida yo‘qotishlarni kamaytiradi, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Ushbu omillar mehnat unumdorligining oshishiga, yuk tashish xarajatlarining kamayishiga hamda tashish tizimining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Materiallar oqimi ta’minot zanjiridagi asosiy integrator sifatida namoyon bo‘ladi. Uning funksional vazifalari bir nechta bo‘g‘inlarni qamrab oladi, jumladan:

- logistika vositachilari,
- kompyuter axborot tizimlari,
- bank-moliya institutlari.

Shu sababli, organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish zanjirida an’anaviy yondashuvlardan voz kechib, zamonaviy integratsion yondashuvdan foydalanish dolzarb va maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu yondashuv orqali mahsulot harakatining har bir bosqichi yagona tizimda boshqariladi, resurslar va axborotlar oqimi o‘zaro uyg‘unlashadi, bu esa umumiy logistika samaradorligini oshiradi.

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan




4-rasm. Agrobiznesning taminot zanjiri boshqaruvida integratsion yondashuv tuzilmasi[3].

Zamonaviy sharoitda butun dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning eng keng tarqalgan shakllari – bu xususiy korporativ va dehqon-kooperativ tadbirkorlik shakllaridir. Ushbu ikki model asosida qishloq xo'jaligi biznesida logistikani tashkil etishning ikki asosiy shakli – **korporativ** va **kooperativ** agrologistika modellari keng qo'llanilmoqda.

Korporativ agrologistikaning asosiy bosqichlari (ta'minot, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va mahsulot taqsimoti) bir markazga bo'ysungan, ya'ni shaxsiy nazorat ostida amalga oshiriladi. Bunda asosiy maqsad – korporativ daromadni maksimal darajada oshirishdir. Aksincha, kooperativ modelda boshqaruv teng sheriklik tamoyiliga asoslangan bo'lib, asosan notijorat shaklida va demokratik tarzda tashkil etiladi. Bu modelda asosiy e'tibor – logistika xarajatlarini kamaytirish va kooperativ a'zolarining daromadlarini oshirishga qaratiladi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayoni (ya'ni texnologik operatsiyalar) bilan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlovchi logistika operatsiyalari bir-biridan tubdan farq qiladigan biznes komponentlaridir. Qishloq xo'jaligi xizmat ko'rsatish kooperativlari (XKK) samarali faoliyat yuritishi uchun, birgalikda harakat qilishga qaror qilgan, o'z xo'jaliklariga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining uyushgan guruh sifatida shakllanishi muhimdir.

Shuni inobatga olgan holda, texnologik jarayonlar nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, balki ularni qayta ishlovchi servis kooperativlari faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Xizmat ko'rsatish kooperatsiyasi esa o'z agrobizneslarini:

- ta'minot,
- xarid qilish va sotish,
- transport,
- boshqa ixtisoslashtirilgan xizmatlar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan a'zolar va tashkilotlardan iborat kompleks tizim sifatida qaraladi.

Shuningdek, bu tizim orqali dehqon-fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari bir vaqtning o'zida ko'p funksiyali kooperativlar bilan logistika va texnologik operatsiyalar bo'yicha o'zaro bog'lanishlari mumkin.

Shu sababli, "ixtisoslashtirilgan agrokooperativ" va "kooperativ" tushunchalari bir-birini to'ldiradigan, agrologistikani qo'llab-quvvatlovchi muhim konseptual vositalar sifatida qaraladi.

Ixtisoslashtirilgan agrotexnika kooperativi – bu qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish kooperativi bo'lib, uning asosiy vazifasi o'z a'zolari yoki boshqa tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida moddiy-texnik ta'minot jarayonini mustahkam va tizimli tarzda amalga oshirishdan iboratdir.

Agrologistika faoliyati bilan bog'liq bo'lgan kooperativlar, ya'ni xizmat ko'rsatish yoki ishlab chiqarish kooperativlari ham, xuddi shunday asosiy funksiyani bajaradi: ular o'z a'zolari yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun alohida logistika bo'g'inlari orqali moddiy-texnik ta'minotni tashkil qiladi. Bu ta'minot jarayoni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish uchun asosiy omil hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yerlari xususiy mulk sifatida fuqarolarga berilmoqda. Yerni sotib olgan shaxslarning mulki, qishloq xo'jaligi korxonalarining jamoa mulki va qishloqdagi ijtimoiy soha xodimlarining shaxsiy mulklari orqali mulkchilik munosabatlarining yangi shakllari shakllanmoqda.

Agro ta'minot zanjiri boshqaruvi qanday shaklda tashkil etilishidan qat'i nazar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar quyidagi yo'nalishlarda faoliyatini tizimlashtirishi lozim:

omborxona infratuzilmasi;

mashina-traktor parki va servis xizmati;

3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

mexanizatsiyalashgan otryadlar faoliyati;
mahsulot yetishtirishda raqobatbardoshlikni ta'minlash.
Bularning barchasi ishlab chiqarishning samaradorligi va rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.
Shuningdek, ushbu maqsadlarga quyidagi amaliy chora-tadbirlar orqali erishish mumkin:
Faoliyatni prognoz qilishga yo'naltirilgan harakatlarni muvofiqlashtirish;
Ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish;
Maishiy xizmatlar infratuzilmasini takomillashtirish;
Ta'minot zanjirlaridagi kommunikatsiyalarni optimallashtirish;
Ishlab chiqarishdagi yo'qotishlarni kamaytirish;
Samarali ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyatini joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, **ixtisoslashtirilgan agrotexnika kooperativlari** qishloq xo'jaligidagi resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va ta'minot zanjirlarida integratsiyani kuchaytirish orqali O'zbekiston qishloq xo'jaligini zamonaviy bosqichga olib chiqishga xizmat qiluvchi muhim institutsional birlikdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyoti va aholisining turmush darajasini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. So'nggi yillarda ushbu sohada sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, xususan, sohada yashil iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, organik mahsulotlar ishlab chiqarish kabilarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Hozirgi suv tanqisligi, texnologik infratuzilma va ekologik muammolar kabi qiyinchiliklar davom etayotgan ayni paytda organik qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish, raqamlashtirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirishda sohada “ixtisoslashtirilgan agrokooperativ” tashkil etish orqali mahsulotni yetkazib berishda taminot zanjiri ishtirokchilarini boshqarishni takomillashtirish orqali O'zbekiston xalqaro bozorda mustahkam o'rin egallashi mumkin.

Agrota'minot zanjirlari ishtirokchilarini boshqarishni takomillashtirishda agrotexnikadan foydalanish optimal xarajatlar bilan raqobatbardosh mahsulotlar olish imkonini beradi. Zamonaviy dunyo agrobiznesi logistika yondashuvlarini joriy etishda katta tajribaga ega. Mahalliy fermerlar uchun ular bilan tanishish va ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish vaqti keldi, deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Свечникова Т.М. Органическое сельское хозяйство: сущность и тенденции развития // Московский экономический журнал. – 2019. – № 8. – с. 89. – doi:. 10.24411/2413-046X-2019-18087
2. Пешкова А.В. Эффективность производства продукции органического сельского хозяйства//Автореферат дисс. на соиск. учен. степ. к.э.н. Москва-2013. С. 27,
3. https://soz.bio/organicheskoe-selskoe-khozyaystvo-za/.
4. Кундиус В.А., Воронкова О.Ю. Научные основы развития сельского хозяйства, кластерный подход // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. –2019. – № 11-1(38). – с. 97-100. – doi: 10.24411/2500–1000–2019–11706.
5. Саидов М.Х., Ашурметова Н.А., Хамдамова Г.Т. Теоретические основы органического сельского хозяйства в Республике Узбекистан. https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskie-osnovy-organicheskogo-sel-skogo-hozyaystva-v-respublike-uzbekistan

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

## 2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz